

YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINI O'RGANILISHI VA TAKOMILLASHUVIDA XORIJIY TAJRIBA.

Sadikova Shaxnozahon Muhammadsobirovna

Andijon viloyati Yuridik Texnikumi o'qituvchisi 3-darajali yurist

tekinacc@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yuridik xizmat faoliyati tushunchasi, ushbu faoliyatni tartibga soluvchi normativ – huquqiy hujjatlar, yuridik xizmat faoliyatining bugungi kundagi ahamiyati hamda jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilishdagi o'ziga xos o'rni, yuridik xizmat sohasida xorijiy tajribaning roli va ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Yuridik xizmat tushunchasi, yurist konsult kim? yurist kim? lokal hujjat? advokat kim?

Абстрактный: В статье раскрыто понятие юридической служебной деятельности, нормативно-правовые документы, регулирующие эту деятельность, значение юридической служебной деятельности сегодня и ее уникальная роль в обновлении общества, модернизации и реформировании страны, роль и значение зарубежного опыта в сфере юридических услуг. Информация предоставлена.

Ключевые слова: Что такое юридический консультант? адвокат? местный документ? кто такой юрист

Abstract: The article describes the concept of legal service activity, normative and legal documents regulating this activity, the importance of legal service activity today and its unique role in the renewal of society, modernization and reform of the country, the role and importance of foreign experience in the field of legal service. information is provided.

Key words: What is a legal consultant? lawyer? local document? who is a lawyer

Mamlakatimizda kuchli huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida qonun ustuvorligini oshirishda yuridik xizmat faoliyatini muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yilda qabul qilingan, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risidagi Farmonida belgilangan 100 ta maqsadda ham ushbu sohani rivojlantirish uchun muhim vazifalar belgilab berildi. Bundan tashqari yuridik xizmat faoliyatini yanada rivojlantirish, huquqiy tartibga solish va uning huquqiy maqomini belgilash yuzasidan qator normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 iyunda PQ 5168-son “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida” gi qaror qabul qilinib, ushbu qaror asosda joylarda yuridik markazlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Qaror bilan yuridik xizmat ko'rsatiladigan davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati huquqiy jihatdan ta'minlash, davlat tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatish, xodimlarning huquqiy savodhonligi va huquqiy madaniyati oshirilishi va shu kabi bir qator muhim vazifalar belgilandi. Yuridik xizmatning jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilishdagi o'ziga xos o'rni va ahamiyati yuqori darajada turadi. Shu bois mamlakatimizda yuridik xizmat faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishda rivojlangan davlatlar hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilayotgan boshqa mamlakatlarning qonun hujjatlarini, ularning tizimi, faoliyati va huquqiy maqomini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani **Germaniya davlati** misolida ko'rib chiqamiz. Germaniyada barcha davlat organlari va yirik xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda huquqiy ishlarni amalga oshirish uchun yuridik xizmat tashkil qilinadi. Yuridik xizmat davlat organlari va kompaniyalarning tarkibiy tuzilmasi hisoblanib, u yuridik bo'lim, yuridik guruh, yurist konsult shaklida tashkil qilinadi. Yuridik xizmatning huquqiy maqomi va faoliyati

maxsus normativ – huquqiy hujjatlar bilan emas, balki davlat organlari kompaniyalarning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi. Lekin bu Germaniyada yuridik xizmatga oid hech qanday normativ – huquqiy hujjat mavjud emas degan xulosaga kelishga asos bo’lmaydi. Chunki davlat organlari va kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek protsessual qonun hujjatlarida yuridik xizmat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ishlar va uning faoliyatiga oid boshqa normalar, davlat xizmatchilari to’g’risidagi normativ – huquqiy hujjatlarda belgilangan. Germaniyada kompaniyalarning yuridik xizmat xodimlari, sudlarda kompaniya huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega emaslar, bu vazifani tegishli sudlarda qatnashish huquqiga ega bo’lgan advokatlar amalga oshiradilar. Ammo sud majlislari ochiq bo’lganligi sababli yuridik xizmat xodimlari ham barcha fuqarolar singari unda qatnashishlari mumkin. Advokatlarga kompaniya da’vogar bo’lganda da’vo arizalarini yoki javobgar bo’lganda da’vo arizasi yuzasidan fikr nomalarni yozish va ularga ilova qilish uchun zarur bo’lgan barcha hujjatlar va materiallarni kompaniya yuridik xizmati tayyorlab beradi. Advokatlarning kasbiy huquq va majburiyatları 1959 yil 1 avgustda qabul qilingan Federal advokatura to’g’risidagi Nizom bilan tartibga solinadi. Qonun kuchiga ega bo’lgan mazkur Nizomga 1994yil 2 sentyabrdagi tuzatishlar bilan jiddiy o’zgartirishlar kiritilgan. Fransiya davlat boshqaruvi organlarida ham yuridik xizmatlar mavjud. Ular ushbu organlar o’z faoliyatini qonun doirasida amalga oshirishga ko’maklashadigan malakali yuridik yordam berish, ularning samaradorligini oshirish hamda davlat manfaatlariga zid bo’lgan huquqiy hujjatlarni qabul qilinishini oldini olish bo’yicha tegishli takliflarni ishlab chiqish va kiritishga yo’naltiriladi. Bundan tashqari boshqa horijiy davlatlar misolida ko’radigan bo’lsak, masalan, Yaponiya, Gruziya, Singapur, Koreya mamlakatlarida yuridik xizmat asosan xizmat ko’rsatish mazmunida rivojlangan. Jumladan, Gruziyada yuridik xizmat xodimlari asosiy faoliyati quyidagi xizmatlarga qaratilgan:

- Kompaniyalar, vakolathonalar va filiallarni ro’yxatdan o’tkazish;
- Korporativ muammolarni hal etish;

- Soliq ekspertizasi va maslahat;
- Shartnomalarni ishlab chiqiqsh;
- Gruziya qonunchiligi bo'yicha yozma huquqiy xulosalar tayyorlash;
- Gruziyadagi bojxona masalalari bo'yicha maslahat;
- Kompaniyalarni tugatish;
- Tenderlarda ishtirok etishni qo'llab quvvatlash;
- Litsenziya va ruhsatnomalar olish;
- Biznesni qo'llab quvvatlash xizmatlari;

Shu bilan birgalikda, yuridik xizmat ihtisoslashuvi ham mavjud:

- Hujjatlarni tayyorlash xizmatlari;
- Shartnoma tuzish xizmatlari
- Intellektual mult;
- Sud jarayonlari va nizolarni hal qilish xizmatlari;
- Molivaviy va yuridik maslahat;
- Ishonchnoma va vakillik;
- Soliq huquqlari;
- Korporativ boshqaruvni qo'llab quvvatlash.

Singapurda yuridik xizmat sudlarda, prokuraturada va turli davlat vazirliklari va davlat idoralarining yuridik bo'limlarida xizmat qiluvchi advokatlarning jamoaviy yig'inidir. Janubiy Koreyada yuridik xizmat faoliyati asosan advokatlar tomonidan ko'rsatiladi va bu litsenziyaga ega bo'lishni talab etadi. Bundan tashqari, amaliyotni boshlash uchun 3 yillik ta'lim va maxsus imtihondan o'tish, yuristlar kollegial organi – Koreya BAR Assotsiatsiyasiga a'zo bo'lishi lozim. Koreya yuridik xizmatining yana bir o'ziga xos jihat xorojiy advokatlar va firmalarga yuridik xizmatni ko'rsatishga ruhsat berilganidir. 2009 yilda qabul qilingan "Xorijiy yuridik maslahatchilar to'risida" gi Qonunga asosan chet elliklarga yuridik maslahatxona va vakolatxona ochish orqali mamlakat hududida yuridik xizmat faoliyatini amalga oshirishga ruhsat berilgan.

Gruziyada yuridik xizmat faoliyati mamlakatning 2007 yilda qabul qilingan "Yuridik yordam to'g'risida" gi Qonunga asosan tartibga solinadi. Mazkur faoliyat

Yuridik yordam xizmati tashkiloti tomonidan muvofiq; ashtiriladi. Mamlakatda yuridik xizmat advokat yoki yuridik yordam faoliyatini ko'rsatuvchi yuridik xizmat kompaniyalari tomonidan ko'rsatiladi. Yuridik xizmat faoliyatiga esa asosan yuridik ma'lumotlli va malaka imtihonini topshirgan va stajirovkadan o'tgan shaxslar ishga qabul qilinadi. Shu o'rinda advokat kasbiga ta'rif berib o'tsak -

Advokat – (lot. *Advocatus, advocare* – yordamga chaqirish) – yuridik yordam ko'rsatuvchi shaxs. Jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, tergov harakatlarida va sud majlisida, fuqaroviylar ishlari sudida, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlari sudya yohud vakolatli organlar tomonidan ko'rilmaga ishtirok etadi, qonunda belgilangan vakolatga ega.

Germaniyada fuqarolik protsessida adavokatning majburiy ravishdagi ishtiroki yoki uning ishtirokisiz amalga oshiriladi. Germaniya FPK ning 78 - & muvofiq okrug (landgerixt) va boshqa barcha yuqori instansiya sudlarida taraflar advokat orqali o'z manfaatlarini himoya qilishlari mumkin. Agar taraflar advokat orqali vakillik qilishi majburiy bo'lмаган hollarda, nizo sudda taraflarning o'zi yoki fuqarolik protsessual muomala layoqatiga ega bo'lган har qanday shaxsni vakil qilish orqali ko'rib chiqilishi mumkin. Demak, bunday hollarda va kishi sifatida kompaniyaning yuridik xizmat xodimi ishtirok etishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xorijiy davlatlarning yuridik xizmat faoliyati huquqiy asoslarini va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish va qiyoslash orqali mamlakatimizda ushbu sohani rivojlanishi, milliy qonunchiligidizni takomillashuvi, yuridik xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, sohani rivojlantirish, bundan tashqari jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”. 2022 y. Toshkent.
2. PQ 5168 – son. 2023 yil 29 iyun. “ Davlat organlari va tashkilotlarida yuridik xizmat ko’rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” gi
3. Введение в юридическую специальность. П. А. Корнеева. В.К.Боброва
4. Yuridik ensiklopediya.
5. Государственная служба Франции. Ю. Рубинский.
6. Lex.uz.